




BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI

FANIDAN MUSTAQIL ISHI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
BUXGALTERIYA HISOBI, TAHLIL VA AUDIT
KAFEDRASI

Gr.Nº _____

F.I.O. _____

BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI
fanidan
MUSTAQIL ISHI

Mualliflar:

«Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit»
kafedrasi professori, i.f.d
«Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit»
kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.

R.D.Dusmuratov,
A.S.Boltayev

M U N D A R I J A

KIRISH.....	4
I-MUSTAQIL ISH	5
BAHOLASH MEZONI	6
I. NAZARIY SAVOLLAR.....	7
II. AMALIY TOPSHRIQLAR.....	17
2.1. Aktivlar va passivlarni guruhlash.....	17
2.2. Axborotlarni balans shaklida umumlashtirish.....	20
2.3. Xo‘jalik operatsiyalari ta’sirida buxgalteriya balansining o‘zgarishi.....	24
II-MUSTAQIL ISH	30
BAHOLASH MEZONI	31
I. NAZARIY SAVOLLAR.....	32
II. AMALIY TOPSHRIQLAR.....	37
2.1. Xo‘jalik operatsiyalarini scho‘tlarda ikki yoqlama aks ettirish.....	37
2.2. Balans, scho‘tlar va ikki yoqlama yozuvning o‘zaro bog‘liqligi.....	45
III-MUSTAQIL ISH	57
BAHOLASH MEZONI	58
I. NAZARIY SAVOLLAR.....	59
II. AMALIY TOPSHRIQLAR.....	68
2.1. Xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish.....	68
2.2. Aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish.....	69
2.3. Buxgalteriya hisobida aktivlarni baholash.....	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	77

K I R I SH

*Har qanday chuqur bilim faqat mustaqil
o‘qish yo‘li bilangina orttiriladi.
Rubakin N.A*

Talabalarning o‘z ustida mustaqil ishlashi, ularning avvalo shaxs, qolaversa, mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ishlashni oqilona tashkil etish aqliy charchash va hissiy zo‘riqishlar ehtimolini kamaytiradi.

Talabalarning universitetda muvaffaqiyatli ta’lim olishi mustaqil ishlashni tashkil etish va amalga oshirish uslublarini tez hamda puxta egallashiga bog‘liq.

Mustaqil ta’lim mazmuni quyidagi elementlardan iborat:

- mustaqil ta’limning yaqin va uzoq kelajak uchun maqsadini aniqlash;
- o‘rganiladigan masalalarni talabalarning mustaqil tanlashi va asoslashi;
- mustaqil ta’limning aniq rejasi va dasturini ishlab chiqish;
- o‘zini-o‘zi nazorat qilishning shakllari va muddatlarini aniqlash;
- talabaning olgan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga ehtiyojini aniqlashi;
- talaba o‘zining intellektual va shaxsiy imkoniyatlarini aniqlashi.

Talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish barobarida mustaqil va tanqidiy fikrlash layoqatini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday xususiyatlarga ega odam, odatda, **qat’iyatliligi, o‘z faoliyatini aniq rejalashtirishi va yo‘l qo‘ygan xatolarini tahlil qilish va tuzatishga tayyorligi, vaziyatni to‘g‘ri baholay olishi va maqsadga erishmaguncha orqaga chekinmasligi** bilan ajralib turadi. Bunday odamga o‘z hatti-harakatini baholash, intellektual usullar va strategiyalarni tushunib qo‘llash, o‘zining bilim olish faoliyatidagi kamchiliklarini va ularning sabablarini tahlil qilish va erishgan yutuqlarini baholash hamda murosa yo‘llarini izlash kabi fazilatlar xosdir.

O‘qilgan materiallarni xotirada yaxshi saqlab qolish va unutmaslik uchun uni tushunish va uqib olish zarur. Shuning uchun xalq orasida «*o‘qish boshqa, uqish boshqa*» deyiladi.

«Buxgalteriya hisobi nazariyasi» faniga mustaqil ta’lim uchun jami 180 soat (6 kredit) ajratilgan, shundan: birinchi semestr uchun 90 soat (3 kredit) va ikkinchi semestr uchun 90 soat (3 kredit). Mashg‘ulotlar boshlanishidan oldin, talabalarga mustaqil ta’lim topshiriqlaridan iborat uslubiy qo‘llanma yetkaziladi. Qo‘llanma ikki qismdan iborat (har bir semestr uchun alohida), fanning ishchi o‘quv dasturi va kalendar rejasiga to‘liq mos keladi. Har bir mavzu doirasida nazorat savollari va ularga javob topish uchun joy qoldirilgan, so‘ngra bir nechtadan amaliy mashqlar hamda ularni bajarish uchun uslubiy tavsiyalar berilgan. Qo‘llanma semestr boshida talabalarga yetkazilib, tushuntiriladi va vujudga kelgan savollar bo‘yicha mashg‘ulotlar davomida maslahat berib boridi. Har 1 kredit (30 soat) uchun ajratilgan vaqt tugagan sanada talabalardan mustaqil ish topshiriqlari yig‘ib olinib, baholanadi va keyingi modulni mustaqil bajarishlari uchun talabalarga qaytib beriladi. Har bir kredit uchun ajratilgan mustaqil ish yakunida bajarilgan ishlar qisqacha muhokama qilinadi, umumlashtiriladi va yakun yasaladi hamda navbatdagi modul (kredit, 30 soat) bilan aloqadorligi (uzviy bog‘liqligi) to‘g‘risida ma’lumot va uni bajarish bo‘yicha yo‘llanma beriladi. Barcha mustaqil ish mavzulari bo‘yicha mashg‘ulotlar shunday tarzda izchil va uzviylikda bajarilib, har semestr yakunida talaba 3 kreditni va fan yakunida 6 kreditni to‘liq o‘zlashtiradi, ya’ni fanning ishchi dasturida qo‘yilgan maqsadga erishiladi.

Mualliflar

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

BUXGALTERIYA HISOBI, TAHLIL VA AUDIT KAFEDRASI

Gr.Nº _____

F.I.O. _____

**BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI
fanidan
1-MUSTAQIL ISHI**

Mualliflar:

«Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit»
kafedrasi professori, i.f.d

R.D.Dusmuratov,

«Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit»
kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.

A.S. Boltayev

Mustaqil ish topshiriqlari berildi: _____ «__» _____ 202__ y.

Mustaqil ish topshiriqlarini oldim: _____ «__» _____ 202__ y.

Toshkent – 2021

BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI FANIDAN

1-MUSTAQIL ISH BAHOLASH MEZONI

№	Topshiriqlar	Baho¹
1	Nazariy savollarga javobi	
2	Amaliy topshriqlarning bajarilishi	
2.1	Aktivlar va passivlarni guruhlash	
2.2	Axborotlarni balans shaklida umumlashtirish	
2.3	Xo‘jalik operatsiyalari ta’sirida buxgalteriya balansining o‘zgarishi	
	O‘rtacha baho	

¹ Mustaqil ish 5 ballik tizim bo‘yicha (5«a’lo», 4«yxash», 3 «qoniqarli», 2«qoniqarsiz») baholanadi. Har bir bo‘lim va so‘ngra umumiyl o‘rtacha baho oddiy arifmetik usul bo‘yicha aniqlanadi.

I. «BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI» FANIDAN NAZARIY SAVOLLAR (O'Z TUSHUNCHANGIZNI QISQA VA ANIQ YOZING!)

1. 5230900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlanadigan bakalavrlarga DTSda qanday asosiy talablar qo‘yilgan?

2. Talaba buxgalteriya hisobi nazariyasi fanini o'rganish orqali qanday bilimlarga ega bo'ladi?

3. Xo‘jalik hisobining vujudga kelish sabablarini va uning shakllanish bosqichlari qanday?

4. Xo‘jalik hisobining ta’rifi va qanday turlari bor?

5. Xo‘jalik hisobi turlarining farqlari va o‘xshashliklari nimadan iborat?

6. Buxgalteriya hisobini ta’riflang.

7. Buxgalteriya hisobining qanday turlari mavjud va ularni ta’riflang?

8. Buxgalteriya hisobining boshqa fanlar bilan aloqadorligini tavsiflang.

9. Buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalari qanday?

10. Buxgalteriya hisobi boshqaruv tizimida qanday funktsiyalarni bajaradi?

11. Buxgalteriya hisobini yuritish oldiga qanday talablar qo‘yiladi?

12. Buxgalteriya hisobining asosiy printsiplari va ularning mazmuni nimadan iborat?

13. Buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar va ularning turlarini tavsiflang.

14. Buxgalteriya hisobi predmetini ta’riflang.

15. Korxona aktivlari tarkibi va funktsional roli bo‘yicha qanday guruahlarga ajratiladi?

16. Uzoq muddatli aktivlar deganda nimani tushunasiz?

17. Joriy aktivlarga nimalar kiradi?

18. Korxona passivlari qanday guruhlarga bo'linadi?

19. O‘z mablag‘larining manbalari nimalardan iborat?

20. Korxona majburiyatlari va ularning turkumlanishi?

21. Buxgalteriya hisobining muhim ob’ektlariga nimalar kiradi?

22. Buxgalteriya hisobi metodining mohiyati va uning tarkibi qanday usullardan iborat?

23. Buxgalteriya hisobi predmeti va metodi o‘rtasida qanday o‘zaro bog‘liqlik mayjud?

24. Buxgalteriya balansi nima va uning ahamiyati qanday?

25. Buxgalteriya balansining tuzilishini tavsiflang.

26. Balansning qanday turlari mayjud va ularni qisqacha tavsiflang.

27. Balans nima maqsadda va qanday tuziladi?

28. Balansning quyidagi bo‘limlari mazmunini ochib bering:
- a) aktiv: I. «*Uzoq muddatli aktivlar*»; II. «*Joriy aktivlar*».
 - b) passiv: I. «*O‘z mablag‘lari manbalari*»; II. «*Majburiyatlar*».

29. Xo‘jalik operatsiyalarining ta’sirida balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlar qanday va ularning mazmunini tavsiflang?

30. Buxgalteriya balansi ma’lumotlari bo‘yicha qanday ko‘rsatkichlarni hisoblash mumkin?

II. AMALIY TOPSHRIQLAR

2.1. Aktivlar va passivlarni guruhlash

1. Quyida berilgan aktivlar va passivlarni guruhlang:

Hisob-kitob scho'ti	Qisqa muddatli bank krediti
Tayyor mahsulot	Mol etkazib beruvchilarga to'lanadigan scho'tlar
Uskunalar	Idishlar
Ta'sischilarga qarz	Ustav kapitali
Uzoq muddatli bank krediti	Hisobdor shaxslarga to'lanadigan qarzlar
Transport vositalari	Budgetga to'lovlар bo'yicha qarz
Savdo markasi	Materiallar
Valyuta scho't	Qo'shilgan kapital
Kelgusi davr xarajatlari	Rezerv kapitali
Kassa	Tugallanmagan ishlab chiqarish
Bino	Sanoat namunasi
Ehtiyyot qismlar	Xaridorlardan olinadigan scho'tlar
Nomoddiy aktivlar	Ombordagi tovarlar
Ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha ta'sischilarning qarzları	Xodimlarga mehnat haqi bo'yicha qarzdorlik
Taqsimlanmagan foyda	Inshoat
Mualliflik huquqi	Umumishlab chiqarish xarajatlari
Dasturiy ta'minot	To'lanadigan divedentlar
Yoqilg'i	Maxsus scho'tlar

Talab qilinadi: Guruhlash natijalarini quyidagi jadvalda aks ettiring va sharhlang.

2. Quyidagi berilgan aktivlar va passivlarni guruuhlang:

Idish va idishbob materiallar	Xom ashyo
Tugallanmagan qurilish	Olinadigan foizlar
Chakana savdodagi tovarlar	Ehtiyyot qismlar
Da'volar bo'yicha to'lanadigan schotlar	Xizmat safarlariga berilgan bo'naklar
Savdo markalari	Kassadagi naqd pul mablag'lari
Ustav kapitali	Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar
Umum ishlab chiqarish xarajatlari	Nomoddiy aktivlar
Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan scho'tlar	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar
tovar belgilari	Qimmatli qog'ozlar
Sug'urta bo'yicha to'lovlar	Tovar belgilari
Sanoat namunalari	Tayyor mahsulot
Mashina va asbob-uskunalar	Qo'shilgan kapital
Inshoat	Tekinga olingan multk
Yoqilg'i	Ishchi hayvonlar
Asosiy ishlab chiqarish	Taqsimlanmagan foyda
Qisqa muddatli qarzlar	Tugallanmagan qurilish
O'stiruvdagi hayvonlar	Yuk avtomobillari
Maqsadli davlat jamg'armalariga bo'nak to'lovlar	Xodimlarning boshqa qarzları
Umumxo'jalik xarajatlari uchun berilgan bo'naklar	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar
Berilgan qisqa muddatli qarzlar	Emissiya daromadi
Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi	Yo'ldagi pul mablag' (o'tkazma)lari
Akkreditivlar	Mamlakat ichidagi valuta schotlari
Da'volar bo'yicha olinadigan schotlar	Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar - joriy qism
Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi	Sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlar
Chet el valutasidagi pul mablag'lari	Qisqa muddatli investitsiyalar
Tovarlar	Oldindan to'langan xizmat haqi
Boshqa kelgusi davr xarajatlari	Yo'ldagi tovarlar
Mahsuldar hayvonlar	Rezerv kapitali
Operativ ijara haqi	Asosiy vositalar
Idishlar	Pul mablag'lari
Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar	Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashuvlar
Mebel va ofis jihozлari	Materiallar
Kompyuter jihozлari va hisoblash texnikasi	Qisqa muddatli bank kreditlari
Uzoq muddatli investitsiyalarni	Ko'p yillik o'simliklar
Tugallanmagan qurilish	Inventar va xo'jalik jihozлari
O'stirishdagi hayvonlar	Bo'rdoqidagi hayvonlar
TMQLar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar	Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlar
Ustav kapitaliga ta'sischilarning ulushlari bo'yicha qarzi	Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimlarning qarzi
Berilgan qarzlar bo'yicha xodimlarning qarzi	Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi

Talab qilinadi: Guruhlash natijalarini quyidagi jadvalda aks ettiring va sharhlang.

2.2. Axborotlarni balans shaklida umumlashtirish

1. Quyidagi «ASILBEK-ABS» xususiy korxonasining ma'lumotlarini balans shaklida umumlashtiring:

«ASILBEK-ABS» xususiy korxonasining ma'lumotlari
(01.01.20... holatiga)

№	Scho'tlarning nomi	Saldo, ming so'm	Balansda	
			aktiv	passiv
1	Asosiy vositalar	138000		
2	Asosiy vositalarning eskirishi	19600		
3	Boshqa debitorlik qarzlari	350		
4	Maqsadli davlat jamgarmalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlar	380		
5	Ustav kapitali	98700		
6	Tekinga olingan mol-mulk	12000		
7	Boshqa kreditorlik qarzlari	330		
8	Taqsimlanmagan foyda	16000		
9	Hisob-kitob scho'ti	97800		
10	Mol etkazib beruvchilarga qarzdorlik	29000		
11	Olingan bo'naklar	2400		
12	Tayyor mahsulot	500		
13	Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar	700		
14	Xodimlarga berilgan bo'naklar	500		
15	Materiallar	2600		
16	Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik	1500		
17	Xaridorlardan olinadigan scho'tlar	3800		
18	Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik	12000		
19	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar	1800		
20	Tugallanmagan ishlab chiqarish	28000		
21	Kelgusi davr xaratatlari	500		
22	Rezerv kapitali	10000		
23	Qisqa muddatli bank kreditlari	100000		
24	Xizmat safari uchun berilgan bo'naklar	2500		
25	Hisobdor shaklardan qarzdorlik	500		
26	Idishlar	2000		
27	Ehtiyyot qismlar	1500		
28	Hisoblangan foizlar	2000		
29	Boshqa maxsus schyotlar	5000		
30	Berilgan qisqa muddatli qarzlar	14000		
31	Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar	5000		
32	Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi	500		
Balans		X		

Talab qilinadi:

1. Yuqorida keltirilgan scho'tlarni aktiv va passiv scho'tlarga ajrating.
2. Aktiv scho'tlarni uzoq muddatli va joriy aktivlarga, passiv scho'tlarni o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Quyida keltirilgan shaklda boshlang'ich balans tuzing va ularni qisqacha tavsiflang.

«ASILBEK-ABS» xususiy korxonasi buxgalteriya balansi
(01.01.20... y. holatiga)

Aktiv	Hisobot davri boshiga	Passiv	Hisobot davri boshiga
1. Uzoq muddatli aktivlar		I. O‘z mablag‘lari manbalari	
I bo‘lim bo‘yicha jami		I bo‘lim bo‘yicha jami	
II. Joriy aktivlar		II. Majburiyatlar.	
II bo‘lim bo‘yicha jami		II bo‘lim bo‘yicha jami	
BALANS		BALANS	

2. Quyidagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ma’lumotlarini balans shaklida umumlashtiring va hisobot davri boshiga balans tuzing hamda ularni qisqacha tavsiflang:

1). «MALIKA» xususiy korxonasida hisobot davri boshiga quyidagi aktivlari va passivlari mavjud: Asosiy vositalar – 104 500 000 so‘m, Materiallar – 18 000 000 so‘m, Budgetga soliqlar bo‘yicha qarzlar – 800 000 so‘m, Olingan bo‘naklar – 5 000 000 so‘m, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi – 73 950 000 so‘m, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 44 700 000 so‘m, Qisqa muddatli bank krediti – 150 000 000 so‘m, Mehnat haqi bo‘yicha qarz – 17 000 000 so‘m, Hisob-kitob scho‘ti – 167 550 000 so‘m, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 6 500 000 so‘m, Ustav kapitali – 134 700 000 so‘m, Taqsimlanmagan foyda – 4 800 000 so‘m, Davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz – 500 000 so‘m.

«MALIKA» xususiy korxonasi buxgalteriya balansi
(01.01.20... y. holatiga)

Aktiv	Hisobot davri boshiga	Passiv	Hisobot davri boshiga
1. Uzoq muddatli aktivlar		I. O‘z mablag‘lari manbalari	
I bo‘lim bo‘yicha jami		I bo‘lim bo‘yicha jami	
II. Joriy aktivlar		II. Majburiyatlar.	
II bo‘lim bo‘yicha jami		II bo‘lim bo‘yicha jami	
BALANS		BALANS	

2). «YULDUZ» xususiy korxonasida hisobot davri boshiga quyidagi aktivlari va passivlari mavjud: Mehnat haqi bo‘yicha qarz – 10 000 000 so‘m, Hisob-kitob scho‘ti – 67 000 000 so‘m, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 15 500 000 so‘m, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi – 12 800 000 so‘m, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 42 100 000 so‘m, Olingan bo‘naklar – 10 000 000 so‘m, Materiallar – 17 200 000 so‘m, Budgetga soliqlar bo‘yicha qarzlar – 500 000 so‘m, Asosiy vositalar – 102 000 000 so‘m, Ustav kapitali – 74 000 000 so‘m, Taqsimlanmagan foyda – 8 000 000 so‘m, Davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz – 200 000 so‘m,

Qisqa muddatli bank krediti – 60 000 000 so‘m, Ombordagi tayyor mahsulot – 21 300 000 so‘m.

«YULDUZ» xususiy korxonasi buxgalteriya balansi
(01.01.20... y. holatiga)

Aktiv	Hisobot davri boshiga	Passiv	Hisobot davri boshiga
1. Uzoq muddatli aktivlar		I. O‘z mablag‘lari manbalari	
I bo‘lim bo‘yicha jami		I bo‘lim bo‘yicha jami	
II. Joriy aktivlar		II. Majburiyatlar.	
II bo‘lim bo‘yicha jami		II bo‘lim bo‘yicha jami	
BALANS		BALANS	

3). “ISTIQLOL NE’MATI” mas’uliyati cheklangan jamiyatda hisobot davri boshiga quyidagi aktivlari va passivlari mavjud: Asosiy vositalar – 98 540 000 so‘m, Davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz – 767 000 so‘m, Xo‘jalik jihozlari va inventarlari – 800 000 so‘m, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 15 500 000 so‘m, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 39 669 000 so‘m, Ustav kapitali – 35 850 000 so‘m, Xaridorlardan olinadigan scho‘tlar – 29 848 000 so‘m, Taqsimlanmagan foyda – 8 700 000 so‘m, Materiallar – 26 650 000 so‘m, Budgetga soliqlar bo‘yicha qarzlar – 1 552 000 so‘m, Uzoq muddatli bank krediti – 100 000 000 so‘m, Kassadagi pul mablag‘lari – 100 000 so‘m, Mehnat haqi bo‘yicha qarz – 14 800 000 so‘m, Hisob-kitob scho‘ti – 58 340 000 so‘m, Boshqa debitorlik qarzlari – 2 560 000 so‘m.

«ISTIQLOL NE’MATI» xususiy korxonasi buxgalteriya balansi
(01.01.20... y. holatiga)

Aktiv	Hisobot davri boshiga	Passiv	Hisobot davri boshiga
1. Uzoq muddatli aktivlar		I. O‘z mablag‘lari manbalari	
I bo‘lim bo‘yicha jami		I bo‘lim bo‘yicha jami	

II. Joriy aktivlar		II. Majburiyatlar.	
II bo‘lim bo‘yicha jami		II bo‘lim bo‘yicha jami	
BALANS		BALANS	

2.3. Xo‘jalik operatsiyalari ta’sirida buxgalteriya balansining o‘zgarishi

1. «TRANS-SERVIS» xususiy korxonasida sodir bo‘lgan quyidagi xo‘jalik operatsiyalari natijasida balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aks ettiring va hisobot davri oxiriga yakuniy balans tuzing.

Quyida «TRANS-SERVIS» xususiy korxonasi (XK) ning 20... yil 1 yanvar holatiga aktivlari va passivlari keltirilgan:

№	Scho‘tlarning nomi	Saldo, ming so‘m	Balansda	
			aktiv	passiv
1	Asosiy vositalar	111991		
2	Asosiy vositalarning eskirishi	56259		
3	Hisoblangan foizlar	905		
4	Idish va idishbop materillar	7300		
5	Xaridorlardan olingan bo‘naklar	4945		
6	Xaridorlardan olinadigan scho‘tlar	18292		
7	Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik	4614		
8	Ustav kapitali	74750		
9	Kassa	1000		
10	Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik	4657		
11	Tayyor mahsulot	37363		
12	Xodimlarga berilgan bo‘naklar	620		
13	Davlatning maqsadli fondlariga to‘lovlar	3890		
14	Mehnatga haqi bo‘yicha qarzdorlik	30000		
15	Olinadigan foizlar	3938		
16	Taqsimlanmagan foyda	18720		
17	Qo‘shilgan kapital	15320		
18	Hisob-kitob scho‘ti	53377		
19	Qisqa muddatli bank kreditlari	40182		
20	Materiallar	10361		
Balans				

Talab qilinadi:

1. Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarni aktivlar va passivlarga ajrating.
2. Aktivlarni uzoq muddatli va joriy aktivlarga, passivlarni esa o‘z mablag‘lari manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Hisobot davri boshiga boshlang‘ich balans tuzing va uni qisqacha tavsiflang.

**«TRANS-SERVIS» XKning buxgalteriya balansi
(01.01.20... y. holatiga)**

Aktiv	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	Passiv	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
I. Uzoq muddatli aktivlar			I. O‘z mablag‘lari manbalari		
I bo‘lim bo‘yicha jami			I bo‘lim bo‘yicha jami		
II. Joriy aktivlar			II. Majburiyatlar		
II bo‘lim bo‘yicha jami			II bo‘lim bo‘yicha jami		
BALANS			BALANS		

«TRANS-SERVIS» xususiy korxonasida sodir bo‘lgan quyidagi xo‘jalik operatsiyalari ta’sirida ro‘y bergen o‘zgarishlarni balansda aks ettiring:

No	Xo‘jalik operatsiyalari	Summa, ming so‘m	O‘zgarish turi
1	Mol yetkazib beruvchilardan olingan materiallar kirim qilindi	14800	
2	Xaridorlardan hisob-kitob scho‘tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi	18292	
3	Qisqa muddatli bank kreditining bir qismi hisob-kitob scho‘tidan to‘landi	12900	
4	Ish haqi uchun hisob-kitob scho‘tidan kassaga pul olindi	30000	
5	Kassadan ish haqi berildi	30000	
6	Davlatning maqsadli fondlari bo‘yicha to‘lovlar hisob-kitob scho‘tidan o‘tkazildi	3890	
7	Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho‘tidan to‘landi	4000	
8	Olinadigan foizlar hisob-kitob scho‘tiga kelib tushdi	3800	

Talab qilinadi:

1. Xo‘jalik operatsiyalari natijasida balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aks ettiring va har bir muomalaning qaysi tipga tegishliligini aniqlang.

2. Hisobot davri oxiriga «TRANS-SERVIS» XKning balansini tuzing, boshlang‘ich va yakuniy balanslarni taqqoslang.

Boshlang‘ich balans va uning xo‘jalik operatsiyalari natijasida o‘zgarishini taqqlash jadvali

2. «HOJI ABDUSHUKUR FARM» mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)da sodir bo‘lgan quyidagi xo‘jalik operatsiyalari natijasida balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aks ettiring va hisobot davri oxiriga yakuniy balans tuzing.

Quyida «HOJI ABDUSHUKUR FARM» MChJning 20... yil 1 yanvar holatiga aktivlari va passivlari keltirilgan:

№	Scho‘tlarning nomi	Saldo, ming so‘m	Balansda	
			aktiv	passiv
1	Asosiy vositalar	108154		
2	Asosiy vositalarning eskirishi	25690		
3	Materiallar	6500		
4	Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik	3900		
5	Xaridorlardan olinadigan scho‘tlar	10857		
6	Mehnatga haqi bo‘yicha qarzdorlik	24000		
7	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo‘naklar	7180		
8	Taqsimlanmagan foyda	32782		
9	Hisob-kitob scho‘ti	44700		
10	Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik	29350		
11	Olingan bo‘naklar	4428		
12	Tayyor mahsulot	500		
13	Davlatning maqsadli fondlariga to‘lovlar	1000		
14	Xodimlarga berilgan bo‘naklar	758		
15	Boshqa debitorlik qarzlari	2356		
16	Maqsadli davlat jamgarmalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar	1350		
17	Ustav kapitali	18720		
18	Qisqa muddatli bank kreditlari	42180		
19	Boshqa kreditorlik qarzlari	305		
Balans				

Talab qilinadi:

- Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarni aktivlar va passivlarga ajrating.
- Aktivlarni uzoq muddatli va joriy aktivlarga, passivlarini esa o‘z mablag‘lari manbalari va majburiyatlarga ajrating.
- Hisobot davri boshiga boshlang‘ich balans tuzing.

«HOJI ABDUSHUKUR FARM» MCHJning buxgalteriya balansi (01.01.20... y. holatiga)

Aktiv	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	Passiv	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
I. Uzoq muddatli aktivlar			I. O‘z mablag‘lari manbalari		
I bo‘lim bo‘yicha jami			I bo‘lim bo‘yicha jami		

II. Joriy aktivlar			II. Majburiyatlar		
II bo‘lim bo‘yicha jami BALANS			II bo‘lim bo‘yicha jami BALANS		

«HOJI ABDUSHUKUR FARM» MChJda sodir bo‘lgan quyidagi xo‘jalik operatsiyalari ta’sirida ro‘y beragan o‘zgarishlarni balansda aks ettiring:

Nº	Xo‘jalik operatsiyalari	Summa, ming so‘m	O‘zgarish turi
1	Mol yetkazib beruvchilardan olingan ehtiyyot qismlar kirim qilindi	2200	
2	Asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi	28000	
3	Hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i hisoblandi	3360	
4	Xaridorlardan hisob-kitob scho‘tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi	10857	
5	Xaridorlardan tayyor mahsulotlar uchun bo‘nak olindi	5000	
6	Hisob kitob scho‘tidan xizmat safari uchun avans olindi	3000	
7	Kassadan hisobdor shaxsga xizmat safari uchun avans berildi	3000	
8	Ish haqi uchun hisob-kitob scho‘tidan kassaga pul olindi	24000	
9	Kassadan ish haqi berildi	24000	
10	Davlatning maqsadli fondlari bo‘yicha to‘lovlar hisob-kitob scho‘tidan o‘tkazildi	1000	
11	Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho‘tidan to‘landi	5000	
12	Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz hisob kitob scho‘tidan to‘landi	3900	
13	Mol yetkazib beruvchilardan idishlar olindi	300	
14	Boshqa debitorlik qarzları hisob-kitob scho‘tiga kelib tushdi	2000	
15	Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho‘tidan to‘landi	2000	

Talab qilinadi:

1. Xo‘jalik operatsiyalari natijasida balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aks ettiring va har bir muomalaning qaysi tipga tegishliliginini aniqlang.
2. Hisobot davri oxiriga «HOJI ABDUSHUKUR FARM» MChJning balansini tuzing, boshlang‘ich va yakuniy balanslarni taqqoslang.
3. Bajarilgan hisob-kitoblarni izohlab bering.

Boshlang'ich balans va uning xo'jalik operatsiyalari natijasida o'zgarishini taqqlaslash jadvali

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

BUXGALTERIYA HISOBI, TAHLIL VA AUDIT KAFEDRASI

Gr.Nº _____

F.I.O. _____

**BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI
fanidan
2-MUSTAQIL ISHI**

Mualliflar:

«Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit»
kafedrasi professori, i.f.d

R.D.Dusmuratov,

«Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit»
kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.

A.S. Boltayev

Mustaqil ish topshiriqlari berildi: _____ «__» _____ 202__ y.

Mustaqil ish topshiriqlarini oldim: _____ «__» _____ 202__ y.

Toshkent – 2021

BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI FANIDAN

2-MUSTAQIL ISH

BAHOLASH MEZONI

№	Topshiriqlar	Baho²
1	Nazariy savollarga javobi	
2	Amaliy topshriqlarning bajarilishi	
2.1	Xo‘jalik operatsiyalarini scho‘tlarda ikki yoqlama aks ettirish	
2.2	Balans, scho‘tlar va ikki yoqlama yozuvning o‘zaro bog‘liqligi	
	O‘rtacha baho	

² Mustaqil ish 5 ballik tizim bo‘yicha (5«a’lo», 4«yxshi», 3 «qoniqarli», 2«qoniqarsiz») baholanadi. Har bir bo‘lim va so‘ngra umumiy o‘rtacha baho oddiy arifmetik usul bo‘yicha aniqlanadi.

**I. «BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI» FANIDAN
NAZARIY SAVOLLAR
(O‘Z TUSHUNCHANGIZNI QISQA VA ANIQ YOZING!)**

1. Buxgalteriya hisobi scho‘tlarini ta’riflang?

2. Buxgalteriya hisobi scho‘tlarining tuzilishi tavsiflang?

3. Buxgalteriya balansiga nisbatan scho‘tlar qanday turlarga bo‘linadi?

4. Sintetik va analitik scho‘tlarni ta’riflang hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni izohlang?

5. Oborot vedomostini ta'riflang va u nima uchun tuziladi?

- a) sintetik scho 'tlar bo 'yicha
 - b) analitik scho 'tlar bo 'yicha

6. Muayyan sintetik scho't bo'yicha oborot vedomosti va mazkur scho'tga ochilgan analitik scho'tlar bo'yicha oborot vedomosti o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

7. Ikki yoqlama yozuv nima? Uning joriy buxgalteriya hisobida mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?

8. Buxgalteriya yozuvi (provodkasi) va uning turlarini tavsiflang?

9. Oddiy va murakkab buxgalteriya provodkasi deganda nimani tushunasiz?

10. Buxgalteriya balansi, scho‘tlar va ikki yoqlama yozuv usullari o‘rtasida qanday uzviy bog‘liqlik mavjud?

11. Buxgalteriya hisobi scho‘tlarining tizimi deganda nimani tushunasiz?

12. Buxgalteriya hisobining scho‘tlari qanday belgilari bo‘yicha turkumlanadi?

13. Scho'tlar rejasini ta'riflang.

14. Ishchi scho'tlar rejasi deganda nimani tushunasiz?

15. Scho'tlar rejası quyidagi bo'limlarining mazmunini tushuntirib bering:

I. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlar

II. Tovar-moddiy zaxiralari

III. Kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar – joriy qismi

IV. Olinadigan scho 'tlar – joriy qismi

V. Pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar va boshqa aktivlar

VI. Joriy majburiyatlar

VII. Uzoq muddatlı majburiyatlar

VIII. Kapital, taqsimlanmagan foyda va rezervlar

IX. Daromadlar va xarajatlar.

Balansdan tashqari scho 'tlar

II. AMALIY TOPSHRIQLAR

2.1. Xo‘jalik operatsiyalarini scho‘tlarda ikki yoqlama aks ettirish

1. «ASILBEK-SERVIS» xususiy korxonasining quyidagi ma’lumotlaridan foydalanib, hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing, hisobot davrida sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarini hisobida aks ettiring, scho‘tlar bo‘yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang hamda hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

**«ASILBEK-SERVIS» xususiy korxonasining ma’lumotlari
(01.01.20... holatiga scho‘tlar saldolari)**

№	Scho‘tlarning nomi	Saldo, ming so‘m	Balansda	
			aktiv	passiv
1	Asosiy vositalar	111991		
2	Asosiy vositalarning eskirishi	56259		
3	Hisoblangan foizlar	905		
4	Idish va idish materillari	7300		
5	Xaridolardan olingan bo‘naklar	4945		
6	Xaridolardan olinadigan scho‘tlar	11401		
7	Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik	4614		
8	Mol yetkazib beruvchilarga berilgan bo‘naklar	6891		
9	Maqsadli davlat jamgarmalari bo‘yicha bo‘nak to‘lovleri	1835		
10	Ustav kapitali	18720		
11	Kassa	1000		
12	Maxsus scho‘tdagi pul mablag‘lari	14773		
13	Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik	4657		
14	Tayyor mahsulot	8923		
15	Xodimlarga berilgan bo‘naklar	620		
16	Davlatning maqsadli fondlariga to‘lovlar	3890		
17	Mehnat haqi bo‘yicha qarzdorlik	13395		
18	Olinadigan foizlar	3938		
19	Taqsimlanmagan foyda	64750		
20	Qo‘shilgan kapital	15320		
21	Hisob-kitob scho‘ti	48604		
22	Qisqa muddatli bank kreditlari	50182		
23	Materiallar	10361		
Balans				

Talab qilinadi:

1. Yuqorida keltirilgan scho‘tlarni aktiv va passiv scho‘tlarga ajrating.
2. Aktiv scho‘tlarni uzoq muddatli va joriy aktivlarga, passiv scho‘tlarni o‘z mablag‘lar manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Quyida keltirilgan shaklda hisobot davri boshiga boshlang‘ich balans tuzing.

**«ASILBEK-SERVIS» xususiy korxonasi
buxgalteriya balansi**

Aktiv	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	Passiv	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	3	4	5	7	8
I. Uzoq muddatli aktivlar			I. O‘z mablag‘lari manbalari		
I bo‘lim bo‘yicha jami			I bo‘lim bo‘yicha jami		
II. Joriy aktivlar			II. Majburiyatlar.		
II bo‘lim bo‘yicha jami			II bo‘lim bo‘yicha jami		
BALANS			BALANS		

Yuqorida tuzilgan balansdan foydalanib, «ASILBEK-SERVIS» xususiy korxonasida hisobot davrida sodir bo‘lgan quyidagi xo‘jalik operatsiyalari ta’sirida ro‘y bergan o‘zgarishlarni balansda aks ettiring:

№	Xo‘jalik muomalalari	Summa, ming so‘m						Scho‘tlar aloqasi	
		Variant							
		1	2	3	4	5	6	Debet	Kredit
1	Mol yetkazib beruvchilardan olingan materiallar kirim qilindi	7200	7100	7500	6980	7420	7600		
2	Xaridorlardan hisob-kitob scho‘tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi	11000	11401	10400	8300	10200	10800		
3	Qisqa muddatli bank kreditining bir qismi maxsus hisob-kitob scho‘tidan to‘landi	12200	14000	13500	12900	12800	13800		
4	Ish haqi uchun hisob-kitob scho‘tidan cassaga pul olindi	13000	13395	12000	13000	13300	13395		
5	Kassadan ish haqi berildi	13000	13395	12000	13000	13300	13395		
6	Davlatning maqsadli fondlari bo‘yicha to‘lovlar hisob-kitob scho‘tidan o’tkazildi	3890	3200	3400	3800	3000	3250		
7	Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho‘tidan to‘landi	4657	4600	5850	5900	5860	5750		
8	Olinadigan foizlar hisob-kitob scho‘tiga kelib tushdi	3900	3820	3890	3800	3850	3838		

Talab qilinadi:

1. Belgilangan shaklda xo‘jalik muomalalarini ro‘yxatga olish jurnalini tuzing va unga topshiriqlarni to‘lig‘icha yozing. Scho‘tlar korrespondensiyasini scho‘tlar rejasiga muvofiq shifrlar yordamida belgilang.
 2. Sintetik scho‘tlar sxemasini chizing va oyning birinchi kuniga boshlang‘ich qoldiq summalarini yozing. Scho‘tlarni ochishda scho‘tlar shifri bilan birga ularning nomlarini ham to‘liq yozing. Scho‘tlarni ularning raqamlari o‘sish tartibida joylashtiring. Yozuvlar tugaganidan keyin har bir scho‘t bo‘yicha oborotlarni va qoldiqlarni aniqlang.
 3. Yuqorida keltirilgan shaklda hisobot davri oxiriga «ASILBEK-SERVIS» xususiy korxonasining balansini tuzing.

Sintetik scho'tlar sxemasi

2. «FAYZ» xususiy korxonasining quyidagi ma'lumotlaridan foydalanib, hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing, hisobot davrida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobida aks ettiring, scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang hamda hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

**«FAYZ» xususiy korxonasining ma'lumotlari
(01.01.20... holatiga scho'tlar saldolari)**

№	Scho'tlarning nomi	Saldo, ming so'm	Balansda	
			aktiv	passiv
1	Asosiy vositalar	98154		
2	Asosiy vositalarning eskirishi	49669		
3	Materiallar	10665		
4	Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik	1552		
5	Xaridorlardan olinadigan scho'tlar	13857		
6	Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik	14283		
7	Mol yetkazib beruvchilarga berilgan bo'naklar	5158		
8	Taqsimlanmagan foyda	26746		
9	Hisob-kitob scho'ti	44729		
10	Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik	2935		
11	Olingan bo'naklar	4428		
12	Tayyor mahsulot	5525		
13	Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar	3767		
14	Xodimlarga berilgan bo'naklar	758		
15	Boshqa debitorlik qarzları	2356		
16	Maqsadli davlat jamgarmalariga bo'nak to'lovleri	1385		
17	Ustav kapitali	38720		
18	Qisqa muddatli bank kreditlari	50000		
19	Boshqa kreditorlik qarzları	487		
Balans				

Talab qilinadi:

